

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(2021 yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobilij o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z or-nida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bos-qichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-fevral oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-fevral oyida, birlikda)


2019 y.
2 390

2020 y.
1 683

2021 y.
1 625


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra 7 600 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 464 taga yoki 48,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 7 132 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 312 taga yoki 48,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oyalarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 483 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89 taga yoki 15,6 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra 21 473 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 387 taga yoki 25,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 469 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 342 taga yoki 26,9 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 930 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 70 taga yoki 8,1 %ga ko'payganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra 611 tani tashkil etib, ulardan 592 tasi yoki 96,9 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 71 taga yoki 13,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 16 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni *(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral oylarida, birlikda)*

| | 2020 y. | 2021 y. |
|--|---------|---------|
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 5 | 3 |
| Sanoat | 11 | 5 |
| Qurilish | 2 | 1 |
| Savdo | 2 | 2 |
| Tashish va saqlash | 1 | - |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | - | - |
| Axborot va aloqa | - | 1 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | - | - |
| Boshqa turlar | - | 4 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

9




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

| | |
|--|--|
| | 74-Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi |
| | 296-Sanoat |
| | 37-Qurilish |
| | 91-Savdo |
| | 16-Tashish va saqlash |
| | 18-Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar |
| | 5-Axborot va aloqa |
| | 6-Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish |
| | 49-Boshqa turlar |

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

10



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

11


| | Jami | <i>shundan:</i> | |
|---------------------------|------------|-----------------|-----------------|
| | | qo'shma korxona | xorijiy korxona |
| Samarqand viloyati | 592 | 411 | 181 |
| Samarqand sh | 256 | 158 | 98 |
| Kattaqo'rg'on sh | 19 | 16 | 3 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 32 | 29 | 3 |
| Bulung'ur | 24 | 10 | 14 |
| Jomboy | 39 | 33 | 6 |
| Ishtixon | 15 | 8 | 7 |
| Kattaqo'rg'on | 10 | 9 | 1 |
| Qo'shrabot | 22 | 11 | 11 |
| Narpay | 5 | 4 | 1 |
| Payariq | 16 | 10 | 6 |
| Pastdarg'om | 29 | 22 | 7 |
| Paxtachi | 9 | 4 | 5 |
| Samarqand | 41 | 32 | 9 |
| Nurobod | 12 | 12 | 0 |
| Urgut | 50 | 44 | 6 |
| Toyloq | 13 | 9 | 4 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 256 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 43,2 %), Urgut 50 ta (8,4 %), Samarqand 41 ta (6,9 %), eng kamlari esa Narpay 5 ta (0,8 %), Paxtachi 9 ta (1,5 %), hamda Kattaqo'rg'on 10 ta (1,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

12




2021- yil 1- mart holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,4 %), Urgut (8,7 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (7,4 %), Payariq (5,4 %), Ishtixon (5,3 %), Kattaqo'rg'on (4,9 %), Toyloq (4,2 %), Bulung'ur va Oqdaryo (3,9 %), Jomboy (3,8 %) Kattaqo'rg'on shahri (3,4 %), Narpay (3,3 %), Nurobod (3,0 %), Paxtachi (2,6 %) va Qo'shrabot (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (24,8 %), Pastdarg'om (9,8 %), Urgut (8,5 %), Samarqand (7,2 %), Oqdaryo (5,9 %), Payariq (5,5 %), Kattaqo'rg'on (5,4 %), Ishtixon (5,2 %), Jomboy (4,4 %), Toyloq hamda Nurobod (4,2 %), Bulung'ur (3,9 %), Narpay (3,4 %), Paxtachi (3,1 %), Kattaqo'rg'on shahri (2,9 %), va Qo'shrabot (1,6 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (35,9 %), Urgut (8,1 %), Samarqand (7,6%), Pastdarg'om (7,1%), Kattaqo'rg'on (5,2 %), Payariq (4,7 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,5 %), Oqdaryo (3,9 %), Jomboy (3,7 %), Ishtixon, Nurobod hamda Bulung'ur (3,5 %), Toyloq (3,0 %), Qo'shrabot va Paxtachi (2,1 %) hamda Narpay (1,5 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqdi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

14




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021-yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)


15



2021-yilning yanvar-fevral oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (19,5 %), Samarqand tumani (12,8 %), Pastdarg'om (10,4 %), Urgut (9,9 %), Payariq (8,7 %), Oqdaryo (6,4 %), Ishtixon (5,8 %), Jomboy hamda Bulung'ur (5,6 %), Toyloq (5,0 %), Narpay (4,1 %), Kattaqo'rg'on (3,9 %), Kattaqo'rg'on shahar (1,2 %), Paxtachi (0,6 %) va Nurobod (0,4 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021-yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a menu titled "RASMIYIY STATISTIKA" with various links like "El'on qilish taqvim", "Metama'lumotlar", etc. The central part shows a search form for "Klassifikator" (Classification code) with fields for "STIR kodini kiritning" (Enter STIR code) and "Rasmidagi kodni kiritning" (Enter code from document). A dropdown menu lists several options, with "Statistik klassifikatsiyalar" (Statistical classification) highlighted. To the right, there's a section titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" listing various reports and publications.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo`limi**
Tel.: 66 235-14-42